ZAMONAVIY TA’LIMDA SOTSIOMETRIK MUNOSOBATLAR ORQALI O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MADANIYATINI RIVOJ-LANTIRISH

Kojabaeva Gulistan Talasbaevna
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagogik mahorat markaz direktori

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim sharoitida sotsiometrik munosabatlar asosida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Pedagogik muloqotni takomillashtirishning samarali usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sotsiometriya, shaxslararo munosabat, o‘qituvchi, o‘quvchi, pedagogik muloqot, ta'lim.

Аннотация. В статье рассматривается развитие культуры межличностных отношений между учителем и учащимися посредством социометрических отношений в современном образовании.

Ключевые слова: социометрия, межличностные отношения, учитель, учащиеся, педагогическое общение, образование.

Abstract. The article examines the development of interpersonal relationship culture between teachers and students through sociometric relations in modern education.

Keywords: sociometry, interpersonal relations, teacher, student, pedagogical communication, education.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yoshlarga xorijdagi tengdoshlari bilan fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqot qilish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda, bu ularga global miqyosda o‘z salohiyatini namoyish etish imkonini bermoqda. Davlatimizda fan, intellektual salohiyat, zamonaviy kadrlar tayyorlash va yuqori texnologiyalar bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi kerakligi talab qilinmoqda. Ijodiy va innovatsion fikrlashni rivojlantirish muhim ko‘rsatkich sifatida e’tirof etilmoqda. Bularning barchasi globallashuv talablariga asoslanib, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘qitish mahoratini oshirishni taqozo etadi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, ijtimoiy kompeten-

siyalarni rivojlantirish vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida sotsiometrik munosabatlar, ya’ni o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar, o‘zaro tanlash va muloqot tizimi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayon samaradorligi esa bevosita o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq.

Ta’lim sotsiometriyasi ta’lim jamiyatning barcha jabhalariga ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy sohalarga ta’sirini baholashga yordam beradi. Lekin, eng avvalo, u ichki ta’lim masalalarini o‘rganadi. Boshqaruv va tashkil etish, kasbiy tayyorgarlik sifati va o‘qitish salohiyatini baholaydi.

Sotsiometrik munosabatlar madaniyati deganda biz umuminsoniy gumanistik qadriyatlarga muvofiq shaxslararo o‘zaro ta’sir jarayonida odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni tushunamiz. Shaxslararo munosabatlarning rivojlangan madaniyati ta’lim jarayonida inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi va shaxsning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yaxshi xulq-atvor darajasida inson endi norma va qoidalarni qayerda, qachon, kim bilan yoki qay darajada qo‘llash haqida o‘ylamaydi. Axloqiy norma va qoidalar insonning "qonida va tanasida" bo‘lib qolgan va shuning uchun u hamma joyda, har doim va hamma bilan xushmuomala va odobli bo‘ladi, ya’ni u har qanday vaziyatda o‘zini munosib tutadi. Bunday xatti-harakatlar uning xarakterining tarkibiy qismidir. Agar inson shaxslararo munosabatlarning rivojlangan madaniyati darajasiga yetgan bo‘lsa, bu uning nima qilish kerakligini, qanday qilishni va nima uchun qilishni bilishini, qilayotgan ishlari va aytayotgan gaplarining oqibatlarini tushunib, oldindan bilishini anglatadi. Bu daraja shaxslararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishning eng yuqori cho‘qqisi va shaxslararo munosabatlar madaniyati sohasida o‘zini yanada takomillashtirish uchun zarur shartdir.

Sotsiometrik tadqiqotlar nafaqat zamonaviy ta’lim sohasidagi ishlarning hozirgi holatini aniqlaydi va baholaydi, balki kelajakdagi ta’lim natijalarini ham bashorat qiladi. Pedagogik bashorat, obyektiv ilmiy bashorat sifatida kelajakdagi harakatlar usuliga pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayonining samaradorligi va o‘qitish va metodologik qo‘llab-quvvatlashga qarab, dastur ishlab chiqish va ta’limning rivojlanish maqsadlariga erishishning potentsialini aniqlash imkonini beradi.

Pedagogikadagi sotsiometrik tadqiqot dasturi asosan zarur ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish tartibini belgilaydi. U tadqiqot obyekti va predmetini dastlabki tahlil qilishni, maqsad va vazi-

falarni tavsiflashni, asosiy tushunchalar va ishchi gipotezalarni ishlab chiqishni, ma’lumotlarni to‘plash usullarini tavsiflashni, ma’lumotlarni tahlil qilish usulini tavsiflashni va xulosalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Bugugi kunda pedagoglar va psixologlar ta’lim jarayonining metodik jihatlari, instrumentariysi sifatida ko‘plab innovatsion g‘oyalarni ilgari surmoqdalar. Chunki ta’lim vositalari, metodlari va texnologiyalari uning sifatini ta’minlashda etakchi ahamiyat kasb etadi. Ularning muayyan shart-sharotlarida qo‘llanilishi, pedagogik samaradorlikka egaligini baholash, har bir metod yoki texnologiyaning afzal jihatlari, kamchiliklari ta’lim sifatiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Bunday yondashuvlar nafaqat o‘qituvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, balki o‘quvchi uchun ham bilish faoliyatini rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi [Safarova R.G. 11].

Sotsiometrik tadqiqotlar o‘tkazishda bir vaqtning o‘zida bir nechta ko‘rsatkichlar asosida tanlab olish tavsiya etiladi. Masalan, o‘qituvchilar tarkibini tahlil qilishda jins, yosh, malaka darajasi, ish staji, ish haqi va boshqalarni hisobga olish foydalidir. Shuningdek, boshqa asosiy tadqiqot o‘zgaruvchilari bilan o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish ham muhimdir. Masalan, kasb-hunar ta’limi rahbarining malaka darajasi boshqa ko‘rsatkichlarning aksariyati bilan chambarchas bog‘liq va yosh ko‘rsatkichi ham tegishli ko‘rsatkichlarga olib keladi.

Amaliyot ko‘p bosqichli tanlab olishning samaradorligini ko‘rsatdi, bunda ko‘rsatkichlarning tegishli guruhlari oldindan tanlanadi va keyin ushbu tanlangan guruhlar ichida tanlanadi.

Masalan, tumandagi barcha korxonalar ro‘yxatini tuzish, keyin ma’lum miqdordagi korxonalarni tanlash, kasb-hunar ta’limi muassasalarini bitirganlarning ro‘yxatini ushbu korxonalardan olish va ulardan kerakli ma’lumotlarni olish mumkin.

Bilish jarayonida shaxs har xil bilimlarni oladi. Masalan, hayot faoliyati mahsuli haqidagi bilimlar – bu qadryatlarning shaxsiy tizimi bo‘lib, ular oddiy qadriyatlardan shu bilan farqlanadiki, ular shaxs uchun shaxsiy ahamiyatga ega, ular tanlashda, qaror qabul qilishda qadriyatli mo‘ljal bo‘lib, faoliyatda rag‘batlantiruvchi kuch, shaxsiy qiziqish bo‘lib xizmat qiladi [Daminov O.O. 100].

Zamonaviy ta’limda sotsiometrik munosobatlarni shakillantirishda o‘qituvchi kadrlarning kasbiy mahoratini, ularning axloqiy fazilatlarini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish va uzluksiz rivojlantirishni ta’minlash kerak. O‘qitish usullarini optimal tashkil etish mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. O‘qituvchilarda pedagogik

mahoratni rivojlantirish ijodiy ko‘nikmalarni, muloqot madaniyatini va pedagogik texnika ko‘nikmalarini, o‘qitishning salohiyatini rivojlantirishni, kuzatuvchanlik, ijodkorlik va ilg‘or pedagogik amaliyotlarni mustaqil o‘zlashtirish sirlarini o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u o‘qitish va o‘rganish jarayonida diqqat va bilimlarni boshqarish, ko‘nikmalar va ruhiy holatlar ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilarga mafkuraviy va siyosiy ta’lim berish orqali o‘qituvchi tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot va tafakkurning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rgatadi, yoshlarni ishga tayyorlaydi, mustahkam professional rivojlanishga ko‘maklashadi va muhim ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarni tez va sifatli amalga oshirishni ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’lim nafaqat bilim berishga, balki uyg‘un shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga ham qaratilgan. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish ayniqsa muhimdir, chunki ular o‘rganish motivatsiyasiga, psixologik muhitga va o‘rganish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Madaniy yondashuv bizga ta’lim jarayonini madaniyatlar, qadriyatlar va udumlarning o‘zaro ta’siri uchun makon sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Maktab jamiyat ko‘zgusidir, shuning uchun o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish ham maqsad, ham ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlarning natijasidir. Bundan tashqari, dunyoga, odamlarga va o‘ziga ijodiy, gumanistik yondashuvga ega faol shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan innovatsion maktablarning paydo bo‘lishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yangi shaxslararo munosabatlarni talab qiladi.

Ma’lumki, bolalarning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji bosqichma-bosqich rivojlanadi. Dastlab, bu kattalarning e’tiborini, keyin esa hamkorlikni istaydi. Keyinchalik, bolalar nafaqat hamkorlik qilishni, balki hurmatga sazovor bo‘lishni ham xohlashadi va nihoyat, o‘zaro tushunishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar va ularning bu munosabatlardagi o‘rni ularning o‘zlariga qanday qarashlarini belgilaydi. Munosabatlarni tashkil etish muammosi ta’lim va tarbiya ishlarida markaziy o‘rin tutadi. Bu tasodif emas, shunki bolalar guruhi ichida o‘qituvchi uchun alohida e’tibor va kuch talab qiladigan munosabatlar shakillanadi.

Noto‘g‘ri pedagogik muloqot qo‘rquv, ishonchsizlik, diqqat, xotira va ishlashning pasayishi, nutq dinamikasining buzilishi va natijada o‘quvchilarda stereotipik bayonotlarni keltirib chiqaradi. Ularning mustaqil fikrlash istagi va qobiliyati pasayadi va xulq-atvor noqulayligi ortadi. Oxir-oqibat, o‘qituvchiga va ko‘pincha fanga nisbatan doimiy salbiy munosabat rivojlanadi. O‘qituvchiga nisbatan bu tushkunlik

ba’zi o‘quvchilarda bir necha yil davom etadi.

O‘qituvchilarni tizimli sotsiometrik tadqiqotlarga jalb qilish ularning kasbiy tayyorgarligiga, pedagogik ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga tadqiqot amaliyoti bo‘yicha maxsus kursni kiritishga va ushbu mavzuni o‘qituvchilarni tayyorlash tizimiga kiritishga ehtiyoj tug‘diradi. Bu ehtiyoj amalda tobora ko‘proq sezilmoqda. Professor V.I.Lisov haqli ravishda ta’kidlaganidek, "Birinchidan, ta’lim-tarbiya tizimida nafaqat ma’lum sohalardagi fan mutaxassislarini, balki ta’lim faoliyatining ma’lum sohalarini boshqarish sohasidagi mutaxassislarni ham rivojlantirish va ko‘paytirish zarurati tobora ortib bormoqda. Ta’lim faoliyati sohasida menejerlarni tayyorlash vazifasi hozirgi kunda barcha darajadagi va ta’lim-tarbiya turlaridagi eng murakkab muammolardan biridir" [Лисов В.И. 123]. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’limni boshqarish muammolarini hal qilish vaziyatni baholashning obyektiv usullaridan biri sifatida sotsiometrik tadqiqotlar natijalariga asoslanishi kerak.

O‘qituvchi sotsiometrik munosabatlarni boshqaruvchi asosiy subyekt hisoblanadi. Uning pedagogik yondashuvi quyidagi omillar orqali muhim ahamiyat kasb etadi. Adolatli va xolis baholash, har bir o‘quvchiga individual yondashuv, muloqot madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy faoliyatlarni tashkil etishdan iborat. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasidagi yashirin ziddiyatlarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim vositachi bo‘lib xizmat qiladi. Sotsiometrik yondashuvlar zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Interfoal metodlar orqali sinf jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, o‘quvchilarning faolligini oshirish va ta’lim sifatini yuksaltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. Science and innovation. 2023 – 190 bet.

2. Daminov O.O. Kasbiy pedagogika. -T.: Adabiyot uchquni, 2018, 256 bet

3. Лисов В. И. Совершенствование управления кадровым потенциалом: концептуальные и методические положения, их реализация на примере образовательных учреждений «Менеджмент и бизнес-администрирование» 2009, № 1, ст. 122-153